

Abdavaxidov Dilshod Narbotirovich, ass.o'qituvchi, Iqtisodiyot va pedagogika universiteti Samarqand kampusi, Orcid: 0009-0002-9027-6926 e-mail: norbotirovich@mail.ru



HINDUIZMNING RIVOJLANISH TARIXI

<https://zenodo.org/records/18841280>

Annotatsiya: Ushbu maqolada hinduizmning shakllanishi va tarixiy rivojlanish bosqichlari dinshunoslik hamda sivilizatsion yondashuv asosida kompleks tahlil qilinadi. Muallif hinduizmni faqat e'tiqod tizimi sifatida emas, balki ko'p asrlik tarixiy tajriba natijasida shakllangan ijtimoiy-madaniy hodisa sifatida talqin qiladi. Shuningdek, kasta tizimining jamiyat barqarorligi, diniy bag'rikenglik, marosimiy an'analar va diniy pluralizmga ta'siri ilmiy asosda yoritiladi. Tadqiqot natijalari hinduizmning tarixiy barqarorligi, moslashuvchanligi hamda zamonaviy davrdagi transformatsiyalarini anglashga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: Hinduizm, karma, dxarma, kasta tizimi, diniy bag'rikenglik, diniy pluralizm, hind sivilizatsiyasi, diniy an'analar, ijtimoiy institutlar, diniy-falsafiy qarashlar.

HISTORY OF THE DEVELOPMENT OF HINDUISM

Abstract: This article provides a comprehensive analysis of the formation and historical development of Hinduism based on a religious and civilizational approach. The author interprets Hinduism not only as a belief system, but also as a socio-cultural phenomenon formed as a result of centuries-old historical experience. The influence of the caste system on the stability of society, religious tolerance, ritual traditions and religious pluralism is also scientifically examined. The results of the study serve to understand the historical stability, flexibility and transformations of Hinduism in modern times.

Keywords: Hinduism, karma, dharma, caste system, religious tolerance, religious pluralism, Indian civilization, religious traditions, social institutions, religious and philosophical views.

ИСТОРИЯ РАЗВИТИЯ ИНДУИЗМА

Аннотация: В данной статье представлен всесторонний анализ формирования и исторического развития индуизма на основе религиозно-цивилизационного подхода. Автор рассматривает индуизм не только как систему верований, но и как социокультурный феномен, сформировавшийся в результате многовекового исторического опыта. Научно исследовано также влияние кастовой системы на стабильность общества, религиозную терпимость, ритуальные традиции и

религиозный плюрализм. Результаты исследования помогают понять историческую стабильность, гибкость и трансформации индуизма в современную эпоху.

Ключевые слова: Индуизм, карма, дхарма, кастовая система, религиозная терпимость, религиозный плюрализм, индийская цивилизация, религиозные традиции, социальные институты, религиозно-философские взгляды.

Kirish

Hinduizm dunyodagi eng qadimgi dinlardan biri bo'lib uning kelib chiqishi miloddan avvalgi III-II ming yilliklarga to'g'ri keladi. "Hinduizm" atamasi paydo bo'lgan vaqtga nisbatan ikkita keng tarqalgan nazariya mavjud bo'lgan [1]. Ulardan biriga ko'ra, "Hinduizm" so'zi mazkur dinning falsafiy tizimlaridan biri bo'lgan – "darshan" va muqaddas matnlar – "shastra"larning shakllanishi davrida – X-XIV asrlarda vujudga kelgan. Yana biriga ko'ra, olimlar "hinduizm"ni yevropaliklar tomonidan XIX asrda diniy atama sifatida fanga kiritgan deb hisoblashadi. Shuni alohida ta'kidlab o'tish lozimki, hinduizm nafaqat din, balki, u juda keng ma'nodagi diniy, mifologik, falsafiy, huquqiy va axloqiy tushunchalar majmuasi hamdir. Hinduizm sanskritcha "Satya Sanatana Dharma" ("haqiqiy abadiy din") ma'nosini beradi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili

Jahon dinlari, xususan Hindiston sivilizatsiyasi doirasida shakllangan diniy tizimlarning tarixiy, ijtimoiy va siyosiy o'rni masalasi ko'plab tadqiqotchilar tomonidan kompleks tarzda o'rganilgan. Ushbu yo'nalishdagi adabiyotlar diniy an'analar evolyutsiyasi, ularning jamiyat va davlat bilan o'zaro aloqasi hamda konfessional munosabatlarning murakkab mexanizmlarini tahlil qilishga qaratilgan bo'lib, mazkur maqola mavzusini ilmiy jihatdan asoslash uchun muhim metodologik poydevor yaratadi. Dinlar tipologiyasi va ularning tarixiy rivojlanish jarayonini tizimli ravishda tahlil qilgan ishlardan biri — S.Goroxovning "Jahon xalqlari dinlari" kitobi hisoblanadi. Mualliflar dinlarni sivilizatsion jarayonlarning ajralmas qismi sifatida talqin qilib, diniy institutlarning jamiyatdagi barqarorlashtiruvchi funksiyasini ko'rsatadi. Asarda hinduizm, buddizm va siksizm kabi Janubiy Osiyo diniy an'analari tarixiy evolyutsiya kontekstida yoritilib, diniy tizimlarning ijtimoiy qatlamlashuv va madaniy identifikatsiyaga ta'siri ochib beriladi. Ushbu yondashuv diniy tizimlarni faqat e'tiqodiy hodisa emas, balki ijtimoiy institut sifatida ko'rib chiqish imkonini beradi.

Hindiston diniy muhitining siyosiy va ijtimoiy ziddiyatlar bilan uzviy bog'liqligini tadqiq qilgan muhim ishlardan biri A.G.Belskiy va D.E.Furmanning Sikxlar va hindular: Din, siyosat, terrorizm asari hisoblanadi. Mualliflar sikhizm va hinduizm o'rtasidagi tarixiy munosabatlarni tahlil qilib, diniy identifikatsiya siyosiy mobilizatsiya vositasiga aylanish jarayonini ko'rsatadi. Tadqiqot diniy harakatlarning modern siyosiy kontekstda qanday transformatsiyaga uchrashini ochib beradi, bu esa diniy nizolarning tarixiy ildizlarini tushunishda muhim ahamiyatga ega. Hinduizmning davlat va jamiyat bilan o'zaro aloqalarini o'rgangan ishlarda "Hinduizm, jamiyat, davlat" kitobi alohida o'rin tutadi. Muallif hinduizmni ijtimoiy institut sifatida ko'rib, uning siyosiy madaniyat va ijtimoiy stratifikatsiyaga ta'sirini tahlil qiladi. Ushbu ish diniy qadriyatlarining davlat boshqaruvi va jamiyat tuzilmasiga integratsiyalashuv mexanizmlarini tushuntiradi.

Sivilizatsion jarayonlar kontekstida diniy tafakkur evolyutsiyasini yoritgan mahalliy tadqiqotlardan biri — Sh.Ergashevning "Qadimgi sivilizatsiyalar" kitobi hisoblanadi. Asarda qadimgi jamiyatlarda diniy tasavvurlarning shakllanishi, mifologik tafakkurdan murakkab diniy tizimlarga o'tish jarayoni tarixiy-madaniy nuqtai nazardan yoritiladi.

Ushbu yondashuv diniy institutlarning sivilizatsiya taraqqiyotidagi rolini tushunishga yordam beradi.

Konfessional ziddiyatlarning tarixiy-siyosiy ildizlarini ochib bergan ishlardan yana biri S.Goroxovning “Hindiston: Dinlararo muammolar yuki” ilmiy asari bo‘lib, unda Hindistondagi diniy ziddiyatlar tarixiy meros, siyosiy transformatsiya va ijtimoiy stratifikatsiya bilan bog‘liq holda tahlil qilinadi. Muallif diniy identifikatsiyaning siyosiy jarayonlarga ta‘sirini ochib berib, konfessional munosabatlarning murakkabligini ko‘rsatadi. Umuman olganda, ko‘rib chiqilgan adabiyotlar diniy tizimlarni tarixiy, ijtimoiy va siyosiy kontekstda o‘rganish zarurligini ko‘rsatadi. Ushbu tadqiqotlar diniy institutlarning jamiyat rivojida rolini tushunish, konfessional munosabatlar evolyutsiyasini aniqlash hamda diniy identifikatsiyaning siyosiy jarayonlarga ta‘sirini tahlil qilish uchun metodologik asos yaratadi. Mazkur ilmiy meros ushbu maqolada ko‘tarilgan masalalarni kengroq tarixiy va nazariy doirada talqin qilish imkonini beradi.

Tadqiqot metodologiyasi

Mazkur tadqiqot hinduizmning tarixiy rivojlanishi, diniy-falsafiy mazmuni hamda ijtimoiy institutlar bilan o‘zaro aloqalarini kompleks o‘rganishga qaratilgan bo‘lib, unda tarixiy, dinshunoslik va sivilizatsion yondashuvlar uyg‘unlashtirildi. Tadqiqot metodologiyasi diniy faqat e‘tiqod tizimi sifatida emas, balki uzoq tarixiy jarayon davomida shakllangan ijtimoiy-madaniy hodisa sifatida talqin qilishga asoslanadi. Avvalo, tarixiy-tahliliy metod qo‘llanildi. Ushbu metod orqali hinduizmning kelib chiqishi, rivojlanish bosqichlari, diniy tasavvurlar evolyutsiyasi va ularning jamiyat tuzilmasiga ta‘siri tarixiy izchillikda o‘rganildi. Din bilan bog‘liq tushunchalar — karma, samsara, dxarma va varnashrama tizimi — tarixiy kontekstda talqin qilinib, ularning vaqt davomida qanday ijtimoiy institutga aylangani tahlil qilindi.

Tadqiqotda qiyosiy-dinshunoslik metodi ham muhim o‘rin tutdi. Bu yondashuv hinduizmni boshqa diniy tizimlar bilan konseptual jihatdan solishtirish, uning bag‘rikenglik, haqiqat tushunchasi va diniy pluralizmga oid qarashlarini aniqlash imkonini berdi. Qiyosiy tahlil hinduizmning o‘ziga xosligi va universallik jihatlarini tushuntirishga xizmat qildi. Manbashunoslik va matnshunoslik yondashuvi tadqiqotning asosiy metodik tayanchlaridan biri bo‘ldi. Ilmiy adabiyotlar, dinshunoslikka oid tadqiqotlar va klassik diniy matnlarga tayangan holda hinduizmga oid nazariy qarashlar tahlil qilindi. Ushbu metod diniy tushunchalarning ilmiy talqinini aniqlashtirish va ularning tarixiy-madaniy mazmunini ochib berishga yordam berdi. Natijada qo‘llanilgan metodlar majmui hinduizmni tarixiy rivojlanish, diniy-falsafiy mazmun va ijtimoiy institutlar o‘zaro ta‘siri nuqtai nazaridan chuqur va ko‘p yo‘nalishli o‘rganishga xizmat qildi. Ushbu metodologik asos tadqiqotning ilmiy xolisligini ta‘minlab, diniy fenomenning kompleks talqin qilish imkonini yaratdi.

Tahlil va natijalar

Hinduizm — bu g‘arb dunyoqarashlaridan tubdan farq qiladigan ma‘naviy rivojlanish yo‘lini taklif qiluvchi o‘ziga xos din. Uning asosini yaxshi yoki yomon xulq-atvori uchun qasos (karma) qonuniga binoan yuzaga keladigan ruhlarni qayta uyg‘otish (samsara) haqidagi ta‘limot tashkil etadi [2]. Hinduizmning eng muhim xususiyatlaridan biri bu uning bag‘rikengligidir. Rossiyalik indologlar A.G.Belskiy va D.E.Furman fikricha, “Yevropada xristianlikning g‘alaba qozonishi bilan yo‘qolgan turli diniy (va diniy bo‘lmagan) dunyoqarashdagi odamlarning tinch-totuv yashash imkoniyati zamonaviy davrda qonli urushlar va dunyoviy jarayonlar bilan bevosita bog‘liq holda eng qiyin va og‘riqli yo‘l bilan erishildi. Hinduizm esa bu jihat u paydo bo‘lgandan beri mavjud bo‘lib, hozirgacha yo‘qolmagan” [3]. Yana shuni aytib o‘tish lozimki,

hinduizmda hech qachon inkvizitsiya bo'lishi mumkin emas edi, chunki ming yillar davomida uning atrofida yuzlab turli diniy falsafiy maktablar va yo'nalishlar tinch-totuv yashab, o'zaro bir-birini boyitib kelgan. "Indologiya otasi" M. Myuller "hinduizm bir tomondan, g'oyaviy bag'rikengligi bilan, ikkinchi tomondan esa ijtimoiy kasta tizimida o'ta murosasizligi bilan hayratlanarli din ekanligi"ni ta'kidlaydi [1]. Hinduizm ifodalaydigan an'anaviy hind madaniyati o'z nuqtai nazariga ko'ra, mifologik asos bilan bog'liq bo'lgan o'ziga xos tizimdir.

Hinduizmning mohiyati uning diniy va mafkuraviy mazmuni bilan cheklanib qolmaydi. Uning organik ajralmas qismi "hind sivilizatsiyasi" deb ta'riflangan qator ijtimoiy institutlar, huquqiy normalar, ijtimoiy qoidalar, madaniy hodisalarni ham o'ziga qamrab oladi. Uzoq tarixi davomida hinduizm boshqa sivilizatsiyalarning madaniy tomonlarini o'ziga jalb qildi, begona xudolarni u yoki bu shaklda o'ziga singdirdi, boshqa mifologik e'tiqodlarni esa o'z ehtiyojlari va qarashlariga moslashtirdi. Shu bilan birga, asrlar davomida Hindiston hududida paydo bo'lgan buddizm va boshqa dinlar bilan raqobatga dosh berib, o'z mavqeini mustahkamlab keldi. Qadimgi Misr va Mesopotamiya dinlari, slavyanlar va skandinaviyaliklarning butparast xudolari uzoq vaqt davomida unutilib ketgan bo'lsada, hinduizm xudolari hozirgacha "yashab kelmoqda". Shu o'rinda mashhur hind olimi R. Pandeyning: hinduizmning asosiy "sementlagan" kuchi bu – kasta tizimi degan fikriga ham qo'shilish mumkin [4]. Darhaqiqat, hinduizmning ming yillar davomida saqlanib qolishida kasta tizimining o'rni ham beqiyos.

Hinduizmning ijtimoiy munosabatlar doirasidagi asosiy prinsiplari quyidagilardan iborat deb qaraladi: muomala o'z ijtimoiy guruhi doirasi bilan cheklanmog'i lozim – turli kasta vakillarining birgalikda ovqatlanishi, an'analari bilan faqat o'z guruhlari doirasida turmush qurishi, kastaviy kasb-hunarini o'zgartirishi ta'qiqlanadi. Yosh bolalar o'rtasida nikoh qurish odati keng tarqalgan. Bevalarning turmush qurishi qoralanadi, erining jasadini kuydirish chog'ida gulxanda o'zini o'zi yoqish eng maqbul taqvodorlik hisoblangan. Ushbu qoidalarga amal qilmagan kishilar yoki butun boshli oilalar, ayniqsa, ular yuqori kastadan bo'lsa, eng og'ir jazoga – kastadan quvilishga mahkum qilingan [5]. Shu asosda hindistonlik fan doktori N.K.Singx hinduizmni "hind jamiyatining barqarorligi va birligini saqlaydigan eng muhim mexanizm" deb hisoblaydi. Uning fikricha, kasta tizimi diniy-etnik jamoalarning ichki xususiyatlarini o'zgartirmasdan, unga yangi qo'shimchalar asosida turli etnik, irqiy va diniy guruhlarni birlashtirishga imkon yaratdi [6].

To'rtta varna va ko'plab kastalarga bo'lingan hind jamiyatining murakkab ierarxik tuzilishi mamlakatda ijtimoiy keskinlikni pasaytirishga imkon bergan. Chunki bunday tizim odamlarni sinfiy, etnik yoki diniy asosda birlashtirish imkoniyatini yo'q qilar edi. Bundan tashqari, kasta tizimining an'anaviy qonunlariga ko'ra, har bir kasta boshqasi bilan hech qanday ijtimoiy aloqada (umumiy yig'ilishlar, ovqatlanish va o'zaro nikohlarda) bo'lmasligi kerak edi. Shuning uchun Hindiston tarixi yirik ijtimoiy qo'zg'olonlar va dehqonlar urushlarini bilmaydi. Kasta tizimi diniy va etnik asosda vujudga keladigan notinchliklarni oldini olishga yordam beradi. Bu esa ko'p konfessiyali va ko'p millatli Hindiston uchun juda muhimdir [7]. Rus indologi N.R. Mikaelyan fikricha, "hozirgi kunda ham kasta tizimi hind jamiyatining ijtimoiy-madaniy hayotining eng muhim elementlarini o'zida saqlab qolishda davom etmoqda." Kasta tizimiga rioya qilish boshqa diniy jamoalarning hind jamiyatiga qo'shilishi uchun ham zarur hisoblanadi. Hindistondagi barcha dinlarning eng yuqori vakillari hindlar tomonidan qabul qilingan kasta tizimining shart-sharoitlariga doimo qat'iy rioya qilib kelishgan.

Hinduizm g'oyalariga ko'ra, dunyo qonunlar ("dxarma") orqali boshqariladi. Hinduizmda "varnashrama" deb nomlangan kasta tizimi esa dxarma qonunlarining ijtimoiy sohadagi aks-ifodasidir. Kasta bu – xudojo'y hindlarning nuqtai nazariga ko'ra, turli marosim va ibodatlardagi poklik iyerarxiyasidir. Shuning uchun hinduizmga itoat qiluvchilar o'z kastalik mavqeidan shikoyat qilishining foydasi yo'q. Har bir hind o'z tug'ilgan kastasini taqdir ("karma")ning tuhfasidek qabul qilishi kerak [4]. Jamiyatni kastalardan tashkil etilgan tizimi shu qadar qat'iy bo'lganki, u hozirgi kungacha mavjud bo'lib kelmoqda va mamlakatning har bir odami va butun hayotiga ta'sir ko'rsatmoqda. Hindiston konstitutsiyasi qadimiylik belgisi sifatida aholining kastaviy bo'linishini inkor etsada, ammo mamlakatning ba'zi joylarida bunday tabaqlanish hamon davom etmoqda [2].

Hinduizmni tushunish uchun unda keltirilgan haqiqat to'g'risidagi nazariyaga e'tibor qaratish o'rinli bo'ladi. Chunki hind ilohiyotshunosligida haqiqat tushunchasi alohida e'tiborga molik jihat hisoblanadi. Misol uchun, hinduizmda haqiqat ierarxiyasi mavjud bo'lib, unda yolg'onga o'rin yo'q, chunki din bo'yicha hatto aldanish ham quyi darajadagi haqiqatdir. Aynan shu jihat ham hinduizmda diniy bag'rikenglikning asoslaridan biridir. M. Gandi: "Hinduizm, islom va boshqa dinlar haqiqatning turli xil versiyalari", deb aytgan edi. Har bir kastaning va hatto har bir kishining o'z haqiqati (dxarma) bor va har bir inson unga ko'ra o'zining hayotini qurishi kerak.

Haqiqat haqidagi nazariyalar hinduizm va nasroniylik yoki islom o'rtasidagi eng muhim farqlardan biridir. Hindlar Xudoning tabiatiga oid turli xil talqinlarni tan olishadi, bundan tashqari ular hatto dahriylik borligini tan olib, buni haqiqatni bilishning mumkin bo'lgan usullaridan biri deb hisoblashadi. Biroq, kastalar ierarxiyasi va marosimlarini saqlab qolish haqida gap ketganda, ular hech qanday murosaga kelmasligi barchaga ma'lum. Diniy ta'limot bo'yicha har qanday kishi hinduizmni kasta tizimiga kirmasdan qabul qilish mumkin emas.

Qadimdan Hindistonda (undagi biror mahalliy hududda) va boshqa mamlakatlarda hinduizm bo'yicha cherkov yoki markazlashgan diniy tashkilot mavjud emas. Shuningdek, unda asoschi yoki payg'ambar, alohida yozilgan qonunlar to'plami ham yo'q. Hinduizm ibodatxonalari har doim avtonom ravishda, turli jamoalar, maktablar esa mustaqil ravishda faoliyat olib borgan. Qadimgi va yangi davrlarda hinduizm bo'yicha umumhindiston kengashlari ham chaqirilmagan, shunchaki, din doirasida umum nuqtai nazar, xulq-atvor qoidalari va boshqalar rivojlantirilib kelingan. Braxmanlar yoki boshqa kastalarning vakillari ruhoniylk vazifalarini bajarib, ko'pincha oddiy hayot kechirganlar. Hinduizmda bayram marosimlarining ajralmas qismi tantanali namoyishlar bo'lib, unda ishtirok etuvchilar ma'budlarning tasvirlarini ko'tarib olgan. Vaqtlar o'tib qonli qurbonliklar asta-sekin ma'budlarni "qadrlash" marosimi bilan almashtirilgan: ularning tasvirlariga gulchambarlar kiydirish, xushbo'y hidli o'tlarni tutatish, shamlar yoqish va xudolarga bag'ishlab ichkilikbozlik qilish odatlari joriy qilingan. Bu marosimlar ko'pincha raqs tushish, musiqa chalish va epik dostonlarni kuylash bilan qo'shib olib borilgan. Ibodatxonalarda kohinlardan tashqari musiqachilar, raqqosalar va turli xizmatchilar ham yashagan. Ibodatxonalarni moliyaviy ta'minlash qavm a'zolari va ziyoratchilarning ehsonlari hamda unga tegishli yerdan olinadigan foyda hisobiga amalga oshirilgan [5]. Hinduizm mafkurasining asosiy belgilari "Bxagavadgita"da – mashhur hind eposi "Mahabxarata"ning tarkibiga kirgan dostonda yorqin aks etgan. Bxagavadgita ("xudoning qo'shig'i")da bir-biriga dushman ikki zodagonlar guruhining qo'shinlari jang maydoniga to'planishi va qahramonlardan biri dushman lagerida

o'zining qarindoshlari va do'stlarini ko'rib, oldinda turgan qonli jangdan qo'rqib ketganligi haqida hikoya qilinadi.

Hinduizmning asosiy shartlaridan biri bu bir qator hayvonlarning, birinchi navbatda sigir, buqa, ilonlarning muqaddas hisoblanishidir (Hinduizmning muhim aqidasi – “aximsa” – hech bir tirik jonzotga zarar yetkazmaslik). Hind uchun sigirni o'ldirish braxmanni o'ldirishdan ko'ra dahshatli gunohdir (lekin qadimgi veda davrida mol go'shti qurbonlik uchun oziq-ovqat turlaridan biri bo'lganligi diqqatga sazovor). Hinduizmda sigirlar mo'l-ko'llik, poklik, muqaddaslikni anglatadi. Ona yer singari sigir ham fidoyilik qurbonligi ramzidir. Sigir vegetarianlikning muhim elementlaridan biri bo'lgan sut va sut mahsulotlari bilan ta'minlanganligi sababli hindlar uni ona siymosi sifatida hurmat qilishadi. Shuning uchun hozirgi kunda ham Hindistonda sigirlar so'yilmaydi va mol go'shti iste'mol qilinmaydi. Gang daryosida tahorat qilish har bir hind uchun o'z qalbidagi gunohlarini yuvishi mumkin bo'lgan eng muqaddas harakat hisoblanadi. Uning suvlarida mamlakatning turli hududlaridan kelgan millionlab ziyoratchilar poklanish marosimi - tahoratni amalga oshiradilar. Marhum hindlarning jasadlari odatda olovda yoqilib so'ng uning kuli Gang suvlarida oqizib yuboriladi. Gang daryosi suviga dafn etilish bu – har bir hindning orzusi hisoblanadi. Tabiiyki, bularning barchasi hindlarning hayoti va turmush tarziga juda katta ta'sir ko'rsatadi.

Hinduizm ko'pxudoli dindir. Hinduizm an'analari va manbalarida 330 ta xudo haqida ma'lumotlar mavjud. Dastlab, veda davrida hindlar tabiat kuchlarini ifodalovchi xudolarga sig'inishgan: Indra - momaqalldiroq va chaqmoq, Agni - olov, Surya - quyosh, Soma - oy, Varuna - suv, Vayu - shamol va h.k. Vaqtlar o'tib alohida uchlik asosiy xudolar sifatida ilgari suriladi: Braxma - yaratuvchi, Vishna - himoyachi va Shiva - dunyoni yo'q qiluvchi. Boshqa tomondan, an'anaviy hind falsafasi qat'iy monoteizm g'oyasini himoya qiladi. Unga ko'ra, bitta tanib bo'lmaydigan, tushuntirib bo'lmaydigan, mutlaq Xudo – Braxman mavjud. Biroq, qadimgi hind ilohiyotchilari, dindorlar ommasi turli xil shakl va atributlarga ega xudoga muhtojligini angelaydilar. Shuning uchun, Braxman millionlab xudo shaklidagi shaxsga ega bo'ldi va unda har bir kishi ibodat qilish uchun o'ziga qulay obyektini tanlashi mumkin edi.

Zamonaviy hinduizm ta'limotiga ko'ra, butun koinotning asosi bo'lgan Yaratuvchi – xudo bo'lib, boshqa barcha xudolar va g'ayritabiiy kuchlar uning mujassamligi yoki mulozimlari hisoblanadi. Xudoga sig'inish bu faqat qurbonlik bilan bog'liq emas uni hurmat qilish, e'zozlash, unga sadoqat ko'rsatish bilan belgilanadi. Hindlar uchun bunday oliy xudo Vishna bo'lib, u hayvon (to'ng'iz, baliq, toshbaqa) yoki inson (qora tanli shox yoki podachi Krishna) qiyofasida gavdalanadi. “Ramayana” epik dostonining mashhur qahramoni Ram ham, Budda ham Hinduizm bo'yicha Vishnaning timsollari deb tan olinadi [1]. Hinduizm izdoshlarining boshqa bir qismi tarki dunyo qilgan zohid yoki raqqos ko'rinishida tasvirlanadigan Shivani oliy xudo deb tan oladilar.

Xulosa va takliflar

So'nggi yillarda Hindistondagi ko'plab siyosiy rahbarlar va millatchilar (ayniqsa diniy tashkilot vakillari) hinduizmning shu paytgacha bo'lib kelgan “barqaror” modelidan yuz o'gira boshlashdi. Ular yangi, o'zida hinduizm asoslarini aks ettirgan “Navabxarata Dxarma” (“Yangi hind dini”) deb nomlangan diniy harakatni rivojlantirishga intila boshlashdi. Bu hinduizmning o'ziga xos shakli bo'lib, u o'zidagi asosiy madaniy va axloqiy qadriyatlarni qo'llab-quvvatlovchi, diniy qadriyatlarni esa asta-sekin yo'q bo'lib ketishiga imkon beradigan yo'nalishdir. Shuningdek, uni modernizatsiya qilingan hinduizm deb atash ham mumkin. Nabxarata Dxarma “shunchaki hinduizmni” targ'ib qiladigan (shayvizm yoki vishnuizm emas) diniy oqim bo'lib, undagi oliy xudo hech

qachon cheksiz va mavhum bo'lib hisoblanmaydi. Bхарata Mata (ona Hindiston) ushbu dinning eng oliy hudosi bo'lib, u barcha hindlar uchun eng yuqori tamoyil, asosiy qadriyat va hayotning mazmuni ifodasidir. Shunday qilib, Navabxarata Dxarma, garchi hali aniq tashkiliy asosga va tuzilmalarga ega bo'lmasa-da, eng muhimi (va doimiy ravishda o'sib boruvchi) atrofiga o'z tarafdorlarni jalb qilib bormoqda. Bugungi kunda Hindistonda ko'pchilik hindlar, shuningdek, sikhlar, jayniylar va hatto boshqa dinlarning vakillari ham o'zlarini ushbu yangi diniy harakatning faol tarafdorlari deb bilishadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR VA MANBALAR:

1. Горохов С.А, Христов Т.Т. Религии народов мира: учебное пособие. — М.; КНОРУС, 2017.
2. <https://amilovidov.ru/uz/svidanie/religiya-v-indii-i-ee-rol-v-sovremennoi-zhizni-indusov-kakaya.html>
3. Бельский А.Г., Фурман Д.Е. Сикхи и индусы. Религия, политика, терроризм. М.; Наука, 1992.
4. Горохов С. Индуизм, общество, государство. Азия и Африка сегодня №12, 1999.
5. Sh. Ergashev. Qadimgi sivilizatsiyalar.– Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2016.
6. Singh K., Shah V.P., Samtani N.H. Religions of India: Hinduism, Jainism, Buddhism, Sikhism, Zoroastrism, Christianity, Islam, Judaism. N. Delhi, Clarion books, 1983.
7. Горохов С.А. Индия. Бремя межконфессиональных проблем. Азия и Африка сегодня. 1998. № 10.